



**Ulug` ajdodlarimizning yaratgan o`quv adabiyotlari vositasida bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini ma`naviy tarbiyalash.**

Shodihev N., Xamidova D. (O`zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti)

### **Annotatsiya:**

Maqolada ulug` ajdodlarimizning o`quv adabiyotlar yaratish bo`yicha uslubiy faoliyatları bilan talabalarni tanishtirish orqali ularni ma`naviy tarbiyalash masalalari qaralgan.

Kalit tushunchasi, iboralar: ajdod, o`quv adabiyoti, uslubiyat, ma`naviyat, talaba.

### **Аннотация:**

В статье рассматриваются вопросы, связанные с духовным воспитанием студентов на основе ознакомления их методической деятельности великих предков по созданию учебных литератур.

Ключевые понятия, выражения: предки, учебная литература, методика, духовность, студент.

### **Annotation:**

The article deals with the issues of spiritual education of students by introducing them to the methodological activities of our great ancestors in creating educational literature.

Key concept, expressions: ancestor, educational literature, methodology, moral, student.

Yosh avlodni buyuk tariximiz bilan haqli ravishda faxrlanadigan ruhda tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi aks ettirilgan, mustaqilligimiz ruhi singdirilgan darslik va qo`llanmalarining yangi avlodini yaratish to`g`risidagi fikrlarini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asardan asarga tobora chuqurlashtirib bormoqda. Chunonchi, “Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir” nomli asarida “...darsliklar va o`quv qo`llanmalarini milliy ma`naviy nuqtai nazaridan yangidan qarab chiqishni ...” ta`kidlagan [2] bo`lsalar, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori“ mavzusida so`zlagan nutqi (1997- yil 29- avgust) da : “ Axir darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg`or namunalari aks etishi kerak emasmi?” degan savolni pedagogika fani , mamlakatimiz yetakchi olimlari oldiga ko`ndalang qilib qo`ygan edilar. [5, 8]



O`tgan chorak asr davomida oliy o`quv yurtlari hamda pedagogik ta`lim yo`nalishdagi kasb- hunar kollejlari uchun chop etilgan qator darslik, qo`llanmalar, ma`ruzalar kurslari mazmunining tahlili, shundan dalolat beradiki, ularning ko`pchiligi yuqorida ko`rsatilgan talablarga to`liq javob berolmaydi. O`quv materialini bayon qilishda eski qolip va usullardan to`liq voz kechilmagan. Mazkur soha bo`yicha ajdodlarimiz boy merosidan yetarli darajada foydalanilmayapti [16].

Mazkur holat aniq va tabiiy fanlar ta`lim yo`nalishlari uchun nashr etilgan o`quv darslik, ma`ruzalar kurslari uchun ham xarakterli, desak xato bo`lmaydi [16].

Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan tengi yo`q hissalarini mamlakatimiz miqyosida (“Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”(1998-yil) [3] , “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch”) [ 4, 41-48] hamda jahon miqyosida (“O`rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati”) mavzusidagi xalqaro konferensiyani ochilishi marosimidagi nutqi (2014-yil) [17] ham targ`ibot-tashviqot qilishni birinchi Prezidentimiz boshlab bergenlariga qaramay fizika, matematika, kimyo, biologiya va hokazo fanlar bo`yicha o`quv darslik va qo`llanmalar Nyuton qonuni aslida fan tarixi bo`yicha Abu Ali Ibn Sino , Nyuton binomini aslida Samarqand astronomiya maktabi olimi Jamshid Koshiy, iteratatsiya metodini “Ziji jadidi Ko`ragoniy“ni tuzishda Samarqandlik olimlar tomonidan ishlab chiqilganligi, organik dunyoni evolutsion rivojlanishini, oddiy organizmlarni murakkab organizmlarga aylanishi to`g`risidagi ta`limotni birinchi bo`lib aytganligini va hokazo [11,12,15,16] aniq va tabiiy fanlar bo`yicha o`quv darslik va qo`llanmalarga singdirishni ularning mualliflaridan jiddiy e`tiborni talab etmoqda.

Ushbu nuqtai nazardan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar kabi tuzilmaga ega bo`lgan Xorazm Ma`mun akademiyasi gultoj namoyandalarining o`quv darslik va qo`llanmalar yozishga bo`lgan munosabatlarini namuna sifatida qarash asqotadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino jahonda tengi yo`q olimlar bo`lishlari barobarida ular jahonda tengi yo`q buyuk uslubiyatchi pedagog sifatida ham o`zlarining ilmiy asarlarini yuqori saviyada sharhlab darslik sifatida madrasalarga tavsiya qilganlar.

Ular yaxshi darsliklarsiz yuqori ma`lumotga ega bo`lgan kadrlarni tayyorlash mumkin emasligini hammadan oldin tushunganlar. Xorazm Ma`mun akademiyasi madrasalari uchun darsliklarni yozish bilan fanda bir necha kashfiyotlar qilgan yirik olimlar shug`ullangan.

Abu Rayhon Beruniy darsliklar va qo`llanmalarni yozish uchun ilmiylik, o`quv materiallarini tizimli bayon qilish, ko`rgazmalilik, tushunarilik kabi qoidalarni ishlab chiqqan.

Ulug` alloma mazkur qoidalarga ilk bor o`zi amal qilib 1000- yilda yozgan ``O`tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar`` kitobining oxirida: `` Men bu kitobda odatga ko`ra fanning biror sohasi bo`yicha qo`llanma va foyda izlovchi o`quvchilarni qoniqmasdan



boshqa kitoblarga qarashlarini cheklash maqsadida mumkin qadar to`lar oq ma`lumot berishga harakat qildim ``-, deb ta`kidlagan [7].

Abu Rayhon Beruniyning ``Yulduzlar haqida fan`` asari matematika, astronomiya va juxrofiya bo`yicha o`quv qo`llanma bo`lib, unda 530 ta savolga keng o`quvchilar doirasi uchun tushunarli sodda tilda berilgan javoblarni bayon qilgan [8]. Mazkur asarning biz uchun yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda nazariy materialni bayon qilish barobarida uni amaliyotda qo`llanilishiga ham katta e`tibor berilgan.

Ushbu qo`llanmani biz uchun yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda ulug` allomamiz Abu Rayhon Beruniy Y.A. Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida ifodalangan ``Oltin qoidada`` dan ya`ni ``dastlab narsa, keyin so`z `` dan 600 yil avval jism sezgi organlari orqali aniqlanadi degan fikrni bildirgan [8].

Ta`lim tizimida talabalarning mustaqil o`qish hissasini ortishi, ularning o`quv- biluv faoliyatini faollashtirish zarurligi munosabati bilan ``savol- javoblar ``tarzida yozilgan o`quv-pedagogik adabiyotlarni nashr etishga ehtiyoj oshib borayotganligini, bu amaliyot aslida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolarning bir- birlariga bergen savol va javoblaridan, Beruniyning yuqorida ko`rsatilgan ``Yulduzlar haqida fan`` o`quv qo`llammasidan hamda Abu Ali Ibn Sinoning 50 bobdan iborat ``Kurozae tabiiyot`` (Abu Rayhon Beruniy ta`siri tufayli) savol- javoblar kitobidan boshlanganligini ta`kidlash joizdir.

Ta`lim mazmunini milliy xalq hunarmandchiligi elementlari bilan boyitish masalasiga jamiyatimizda ehtiyoj oshib borayotgan hozirgi kunda maktab geometriya kursini naqqosh, ganjkor, kashtachi, sandiqsoz, do`ppido`z va hokazo kasblar uchun juda zarur bo`lgan ko`plab amaliy masalalarni o`z ichiga olgan, ixcham, uslub jihatidan tushunarli bayon qilingan, mavzularning joylashish sistemasi hunarmandlarning o`zlashtirish qobiliyatiga moslashtirilgan.

Xorazm Ma`mun akademiyasi namoyandasi Abul Vafoning ``Hunarmandlarga geometrik yasashdan nimalar zarurligi haqida kitob`` qo`llanmasi muhum ahamiyat kasb etishini ta`kidlash joiz.

Ma`lumki, ona yurtimizda Xorazm Ma`mun akademiyasining namoyandalari matematika, fizika, kimyo, mexanika va boshqa fanlar singari tabiatshunoslik sohasida ham O`vropadan ancha ilgarilab ketganliklariga fan tarixi guvohlik beradi. Ushbu o`rinda taniqli fan tarixi olimi, angliyalik J.Bernall shunday yozadi: `` Ovropaning katta qismi Rim imperiyasi hududida alg`ov- dalg`ov bo`lib yotgan paytda musulmon dunyosi mislsiz taraqqiyotni boshidan o`tkazgan edi. ... Musulmon olimlari tirik va rivojlanayotgan fanni yaratdilar. Ular Eron, Hindiston, Xitoy va Yunoniston ilmini ijodiy rivojlantirib matematika, astronomiya, meditsinani kengaytirdilar, algebra, trigonometriya, optikaga asos soldilar. Eng hal qiluvchi yutuqlarni musulmon olimlari kimyo yoki alkimyo sohasida qo`lga



kiritdilar, ular eski nazariyalarni tubdan qayta yangiladilar, unga yangi tajriba yakunlarini qo`shdilar va yangi kimyo fanini yaratdilar`` [9,166-167].

Haqiqatdan ham Xorazm Ma`mun akademiyasi olimlari Beruniy, Ibn Sino va boshqalar keyinchalik Abdurahmon al Xaziniyning anorganik kimyo, analitik kimyo, organik kimyo fanlariga asos solganliklari to`g`risidagi boy ilmiy merosni oliy ta`lim tizimida kimyo fanini o`rganish jarayonida talabalarga haqqoniy ravishda aniq materiallar asosida ko`rsatib borish bo`lajak kimyo o`qituvchilarida o`zbek millatiga mansubligidan g`ururlanish,yurtparvar kabi fazilatlarni shakllantirish manbai bo`la oladi.

Rus olimi Yu.I.Savelyev o`zining oliy o`quv yurtlari talabalari uchun nashr etgan ``Kimyo tarixi`` o`quv qo`llanmasida Xorazm Ma`mun akademiyasining yetakchi olimlari boshqa tabiiy matematika fanlar kabi kimyo faning analitik kimyo bo`limiga asos solganini isbotlovchi, talabalarda tarixiy xotirani shakllantiruvchi qimmatbaho tarixiy materiallarni keltirgan [14].

Xorazmda tug`ulib o`sigan Abdurahmon al- Xaziniy tarixda birinchi bo`lib, yuqori aniqlikka ega bo`lgan gidrostatik tarozilar yaratdi. Ular 5 mggacha aniqlikda torta olar edi. Beruniyning solishtirma og`irliliklari bo`yicha boshlab bergen o`lchovlarini davom ettirgan al- Xaziniy o`zini uning shogirdi deb hisoblar edi.

Xorazmda yashab ijod etgan allomalar X asrda kimyo faninining hozirgi zamon tarmoqlari “Anorganik kimyo”, ”Analitik kimyo” fanlariga hamda “Solvatatsiya”(cho`ktirish) nazariyasi sohalariga asos solgan.

Beruniy, Ibn Sinoning ko`plab asarlarida tabiatshunoslik haqidagi ma`lumotlar borligini, ular o`z salohiyatlari bilan boshqa mamlakatlarga taniqli bo`lganliklari, ularning asarlarini O`vropa tillariga tarjima qilishganligi, shu jumladan Ibn Sinoning ``Kitob ash-shifo`` nomli buyuk tabiiy- falsafiy asari XVIII asrda shved biolog olimi Karl Linneyga ham ma`lum bo`lganligi sababli, u o`zi jamlagan o`simliklardan biriga ``Ibn Sino``(``Avitsenniya``)ning tabarruk nomini chuqur hurmat yuzasidan ``Avitsenniya`` deb nom qo`yanligini; Beruniyning ``Xronologiya`` va ``Hindiston`` asarlarida hayvonlar va o`simliklar organlarining tuzilishi haqida, ushbu organlarning atrof-muhit bilan o`zaro aloqasi haqidagi qimmatli ma`lumotlari O`vropaliklarga ma`lum bo`lganligini; Beruniy bundan 1000 yil avval organik dunyoning evolutsion rivojlanishi, oddiy organizmlarni murakkabga aylanishi haqida jahon fanida birinchi bo`lib tamomila yangi fikr bildirilganligini ta`kidlab buyuk ajodolarimizning yuksak salobat, g`urur bilan dunyo xalqlariga ma`rifat nurlarini tarqatganliklarini namoyish qilish barobarida talabalarni kelgusi faoliyatlarida buyuk kelajagimizga ishonch, mustaqilligimizni mustahkamlash uchun ota- bobolarimiz kabi jonbozlik, fidoyilik, ulug`vorlik, mag`rurlik kabi davlat ahammiyatiga molik vazifalarni bajarishga da`vat etish zarur.

Ulug` mutafakkir ``Shifobaxsh vositalar haqida`` kitobida tabiatshunoslik haqidagi bilimlarni umumlashtirgan.



Jahon fani tarixidan ma'lumki IX-XII asrlar Yaqin, O'rta Sharq va Mavarounnahrda ilmiy izlanishlarni olib borish hamda shogirdlar tayyorlashni akademiya shaklida tashkil etish, an'anaga aylangan edi. O'rta Osiyoda bu jarayon keyin ham davom etib, XV asrda Mirzo Ulugbek o'zining akademiyasi (madrasa, rasadxona, boy kutubxona, hisoblash markazi)da shogirdlarga matematika, astronomiya, jug'rofiya, metafizika, tarix bo'yicha madrasada ta'lim-tarbiya berish bilan ularni rasadxonada sayyora va yulduzlar ustidan kuzatishlarga jalb qilish tizimga aylangan edi. Bu har bir shogirdni—matematik, astronomik bilimlarga ega bo'lishlarini talab qilar edi.

Mirzo Ulugbekning rasadxonasi, ulug` xalqimizning tabiat haqidagi uyg'un fikrlari yaxshi darslik va qo'llanmalarsiz chuqur bilimga ega bo`lgan ilmiy riyozatchi va falakshunoslarni tarbiyalab bo`lmasligini, ularni yozish bilan bir qancha kashfiyotlar qilgan olimlar shug`ullanishi lozimligini, bunga e'tiborni kuchaytirish "Ulug`bekning Samarqand akademiyasi"da fanning rivojlanishidan to'xtashini oldini oilshning muhum omili deb qaraganlari bois akademiya olimlarining ko`pchilik asarlari kelgusida shogirdlarining astronomiya, ilmiy riyoziyotdan o'qitishni nazarda tutib yozilganligini, mazkur risola, qo'llanma va darsliklar ularga qo'yilgan talablarga javob bergenligini Jamshid G'iyosiddin Koshiyning "Ilmi hisob kaliti", "Arifmetika kaliti" (astronomik hisoblashlashlarga bag`ishlangan bo`lib, savol-javob tarzida yozilgan), "Aylana haqida risola", "Zij" tuzish uchun muhum bo`lgan bir daraja sinusni hisoblashga bag`ishlangan", Ali Qushchining "Ilmi hisob haqida risola", "Ilmi handasa haqida risola", "Matematika va jug'rofiya", "Astronomiyaga doir risola" va hokazo kitoblari barobarida Muhammad Muso Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni al-Mas'ud", "Yulduzlar haqida fan" foydalanish Ulug`bek madrasasida matematika, astronomiya, geografiya fanlarining asoslari shogirdlarga qanday darajada taqdim etilganligini bo'lajak boshlang`ich sinf o'qituvchilari uchun ularning kelgusi pedagogik faoliyatida muhum manba bo`lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Mirzo Ulug`bek Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy" kitobiga sharh yozib, undan nazariy va amaliy astronomiyada bevosita foydalanganligi, "Yulduzlar hadi fan" kitobi Sharqda besh asrdan buyon foydalanib kelinayotganligini alohida ta'kidlash joiz.

Ulug`bek madrasasida o'quv materialini puxta o'zlashtirish, uni xotirada uzoq saqlash, shogirtlar qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ta'limning ko'rgazma vositalaridan, ya`ni rasadxona devorlariga chizdirilgan osmon jismlari sxemasi, kuzatish asboblari – parallelik lineykalari, quyosh soatlari, kvadrant, sekstant, yulduzlar xaritasi (globusi)dan va boshqa vositalardan foydalanilganini talabalarga ko'rsatish ularning bilim olishlarini faollashtirishda asqotadi.

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan qo'lyozmalar orasida "Hisob" nomi bilan arifmetika, algebra, geometriya fanlari madrasalarda o'rganilgan. Mazkur predmetlar darsliklarining oxirida matematikani amaliyotga tadbiq qilinishini ko'rsatuvchi katta hajmda o'rganiladigan uning "Meros"



taqsim qilish qismiga jalb etish muhumdir. Shu bilan bирgalikda matematikani amaliy maqsadlardan kelib chиqqan fan ekanligini hisobga olib, uning qo`lyozma “Mashq” daftari (meros bo`lish daftari) matematika o`qituvchilarining O`rta asr Turon matematik olimlarining ilmiy asarlari yuzasidan kengaytirib tuzilgan konspekt tariqasidagi qo`lyozmalari ekanligi ulug` ajdodlarimizning yetuk uslubiyatchi ekanligidan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug`bek va boshqa alloma va mutafakkirlarimizning tengsiz asarlari bebaho boylik, o`sib kelayotgan yosh avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai bo`lish bilan birga yangi kashfiyotlarga yetaklaydi. Bizning davrimizgacha yetib kelgan mazkur merosdan Vatan ravnaqi yo`lida oqilona va samarali foydalanish – barcha vatandoshlarimizning burchidir [17,23]. Bu borada fidoyi oimlarning, shu jumladan uslubchi oimlarning roli alohida diqqat- e`tiborga munosib bo`lib, aynan ularning tinimsiz izlanishlari natijalari asosida o`tmishning bebaho ilmiy merosini, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qayta- qayta ta`kidlaganlaridek, amaldagi o`quv darslik va qo`llanmalar mazmuniga muntazam ravishda aks ettirish talabalar qalbida ulug` ajdodlarimizga mehr, sadoqat tuyg`usini jo`sh urdiradi.

Shunday qilib, ulug` ajdodlarimizning o`quv adabiyotlar yaratish bo`yicha faoliyati asosida talabalarni ma`naviy tarbiyalash, shuningdek uzlusiz ta`lim tizimi uchun yaratiladigan o`quv adabiyotlarni yozish bo`yicha muallimlarni vorisiylik ma`suliyatini singdirish, tahsil oluvchilarda katta qiziqish uyg`otadigan qomusiy oimlarimiz kabi, turli metodik usullarda yozilgan adabiyotlarga bo`lgan ehtiyojni qondirish bugungi kunda ham muhum vazifa hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Ta`lim to`g`risidagi qonuni.- QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/ 1313-son
2. Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. 3-T.: O`zbekiston, 1996. - 365 b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – T.: O`zbekiston, 1998. - 311 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma`naviyat, 2008. – 176 b.
5. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so`zlagan nutqi. 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997. - B.4 – 19.
6. Abduraxmonov A. Ulug`bek akademiyasi. - T.: Qomuslar Bosh Tahririysi, 1994. - 28 b.
7. Abu Rayhon Beruniy O`tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar- T.: O`rta va oliy maktab, 1969. - 486 b.



8. Abu Rayhon Beruniy Yulduzlar haqida fan. – T.
9. Bernall Dj. Nauka v istorii obshchestva.- M: Nauka, 195 b.\_345a
10. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Q. Uvatov.- T.:O`zbekiston, 2020.-422b.
11. Zikrillayev F. Beruniyning fizika sohasidagi ishlari. - T.: Fan,1973.-32b.
12. Jo`rayev B. Ibn Sino ijodida fizika va texnika muammolari. - Samarqand.: Zarafshon, 1996: - 55 b.
13. Ma`naviyat yulduzlari. - T.: Xalq merosi, 1999. - 400 b.
14. Rasulov M. Yestestvoznaniye Sredniy Azii. - T.: O`qituvchi, 1985.\_/24 b.
15. Savel'yev Yu.I. Istorii ximii. -M.: Prosvesheniye, 1985. - 368 b.
16. Shodiyev N., Shukurullayeva S. Yoshlarga ajdodlarimizning ilmiy merosi haqida.-T.: ABU MATBUOT- KONSOLT, 2008.-128b.
17. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O`rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensianing ochilish marosimidagi nutqini OTMdA o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma.-T., 2014.-68b.
18. Ta`lim muammolari (Xorazm Ma`mun akademiyasining ming yilligiga bag`ishlangan) jurnali. - 2006. - 1-son. - B. 3-78.